

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUOPRAGMATIC AND DISCURSIVE FEATURES OF TRANSLATING
OFFICIAL DOCUMENTS IN THE FIELD OF EDUCATION (BASED ON ENGLISH-
UZBEK LANGUAGES)*****Khusan Ibragimovich Yuldashev****Head of the International Cooperation Department of UzSWLU,**Independent Researcher at UzSWLU**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: official correspondence, education sector, functional stylistics, official style, linguistic analysis, discourse, communication, pragmatics, documentation, standardization.

Received: 21.04.26**Accepted:** 22.04.26**Published:** 23.04.26

Abstract: This article examines the role and significance of official correspondence in the field of education within social life, as well as its linguistic features. Official correspondence is analyzed as an essential tool of communication and management in the education system. The study highlights functional-stylistic, pragmatic, and discourse aspects of such texts. Furthermore, the paper identifies key research challenges, including genre classification, standardization issues, and the interaction between linguistic and extralinguistic factors.

**TA'LIM SOHASIDAGI RASMIY YOZISHMALAR TARJIMASINING
LINGVOPRAGMATIK VA DISKURSIV XUSUSIYATLARI
(INGLIZ-O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)*****Xusan Ibragimovich Yuldashev****O'zDJTU xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i**O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: rasmiy yozishmalar, ta'lim sohasi, funksional stilistika, rasmiy uslub lingvistik tahlil, diskurs, kommunikatsiya, pragmatika, hujjatshunoslik, andoza va me'yor.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalarning jamiyat hayotidagi o'rnini, ularning ijtimoiy-kommunikativ ahamiyati hamda lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Rasmiy yozishmalar ta'lim tizimida muhim boshqaruv va muloqot vositasi sifatida ko'rib chiqilib, ularning funksional-stilistik, pragmatik va diskursiv jihatlari yoritiladi. Shuningdek,

mazkur yozishmalarni tadqiq qilishdagi dolzarb muammolar, jumladan, janrlar tasnifi, me'yor va andozalarning bir xilligi hamda lingvistik va ekstralingvistik omillar o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ОФИЦИАЛЬНОЙ ДОКУМЕНТАЦИИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Хусан Ибрагимович Юлдашев

Начальник отдела международного сотрудничества УзГУМЯ,

Независимый исследователь УзГУМЯ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: официальная переписка, сфера образования, функциональная стилистика, официальный стиль, лингвистический анализ, дискурс, коммуникация, прагматика, документация, стандартизация.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение официальной переписки в сфере образования в жизни общества, а также ее лингвистические особенности. Официальная переписка анализируется как важное средство коммуникации и управления в системе образования. Освещаются функционально-стилистические, прагматические и дискурсивные аспекты текстов. Также выявляются основные проблемы исследования, включая классификацию жанров, стандартизацию и соотношение лингвистических и экстралингвистических факторов.

Til kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan bir qator ijtimoiy-kommunikativ funksiyani bajaradi. Tilning mana shunday muhim ahamiyati va mohiyati, shaksiz, kishilardan samarali aloqa va tafakkur qilishning qudratli va o'tkir quroli bo'lgan til jamoasi a'zolaridan tilga e'tibor bilan, o'z muloqot vazifasini bajara olishiga imkon yaratuvchiga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Ma'lumki, yurtimiz mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa ko'plab sohalardagi aloqalarining tez sur'atlarda rivojlanib borishi o'zaro muloqotning ahamiyatini yanada oshirdi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajriba va o'qitishning zamonaviy metodlarini joriy qilish, birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida

xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliygohlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun rasmiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro yozishmalar olib borish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Til jamiyatdagi eng muhim kommunikativ vosita sifatida insonlar o‘rtasida axborot almashinuvi, fikr ifodasi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, rasmiy yozishmalar zamonaviy jamiyatda, xususan ta’lim tizimida boshqaruv va hamkorlikning muhim vositasiga aylangan.

Ta’lim sohasidagi rasmiy yozishmalar tashkilotlar, muassasalar va shaxslar o‘rtasidagi rasmiy muloqotni ta’minlaydi. Ular:

- boshqaruv jarayonlarini tartibga soladi;
- huquqiy munosabatlarni mustahkamlaydi;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi.

Shu jihatdan rasmiy yozishmalar nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy tizimni boshqarish instrumenti sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Rasmiy yozishmalar quyidagi asosiy lingvistik belgilar bilan ajralib turadi:

- aniqlik va lo‘ndalik;
- standartlashgan til birliklari (klişe va formulyarlar);
- emotsionallikning cheklanganligi;
- mantiqiy izchillik va strukturalanganlik.

Bu xususiyatlar rasmiy matnlarning huquqiy kuchini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Funksional stilistika nuqtai nazaridan rasmiy yozishmalar ma’muriy-idoraviy uslubga mansub bo‘lib, ular muayyan kommunikativ vazifani bajaradi.

Pragmalingvistik yondashuv esa matnning muallif va qabul qiluvchi o‘rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda tahlil qilishni nazarda tutadi.

Mazkur sohani o‘rganishda quyidagi muammolar mavjud:

- rasmiy yozishmalar janrlarining aniq tasnifi yo‘qligi;
- me’yor va andozalarning bir xil talqin qilinmasligi;
- lingvistik va ekstralingvistik omillar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar;
- zamonaviy (raqamli) kommunikatsiya ta’sirida uslubiy o‘zgarishlar.

Mamlakatimizning taniqli zabardast olimlaridan biri Sh. Safarov “Til muloqot vositasi bo‘lish bilan bir qatorda dunyoni bilish, uning haqida axborot to‘plash va saqlash, boshqalarga yetkazish vositasi hamdir”, deb ta’kidlagan edi.

Antropotsentrizm tamoyillariga tayanadigan tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida lisoniy ilm sohalari integratsiyalashuvining zaruriyati haqida tilshunoslar shunday fikr bildiradi: “Tilshunoslikning Platon davridan beri mavjud bo‘lgan ko‘pgina abadiy muammolarini anglash usuli, tilshunoslikdagi hozirgi kunda juda rivojlangan sohalararo aloqalarning cheksiz kuchayuvi

mavjud bo'lgan barcha xil turli mavzu yo'nalishi va mazmundagi lisoniy bilimlarning birlashuvini taqozo etadi va tilni ilmiy obyekt sifatida avvalgilaridan farqlanuvchi yangi – o'ziga xos miqyosda ongli ravishda yangi izlanish metodlaridan foydalangan holda o'rganishni taqozo etadi. Tilshunoslikning obyektiv holati uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslanib, bilimlarning integratsiyalashuvi prinsipi sifatida oldingi o'ringa olib chiqmoqda .”

Til va nutq bir paytning o'zida verbal kommunikatsiya, ya'ni nutqiy muloqot davomida funksional tizim tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Tilning bunday mavhum tizimi nutqda funksional jihatdan faollashadi va bu odamlar o'rtasida samarali nutqiy muloqotni keltirib chiqaradi. Bu borada akademik V.V. Vinogradov ham til va nutqqa dialektik birlik, ajralmas butunlik sifatida qaraydi va nutqni tilning faoliyati, qo'llanish usuli, hayot faoliyati deya ta'riflaydi hamda uni hech qachon tilga nisbatan qarshi qo'yib bo'lmasligini va shu bilan birga, ularning birini ikkinchisidan ayirib bo'lmasligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Bizga ma'lumki, inson hayotining turli qirralarida til vositalarining tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bizning tadqiqotimizning asosini ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalar tashkil qiladi.

“Ta'lim” so'zi arab tilidan o'zlashtirilgan so'z bo'lib, u “o'rgatish, o'qitish, ilm berish” ma'nolarini anglatadi. “O'zbek tilining izohli lug'ati”ning to'ldirilgan, oxirgi 2020-yilda nashr etilgan 4-bobining 20-27-28-betlar idan quyidagi ma'lumotlarni topamiz:

- bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi;

- ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui, bilim;

- tarbiya, odob-ahloq;

- ko'rsatma, yo'l-yo'riq, o'rgatuv.

Ta'limiy deganda “ta'limga oid, ta'limga tegishli, aloqador” degan ma'nolar tushuniladi. Tarbiyachi so'zi esa ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxs degan ma'noni bildiradi.

Ta'lim sohasiga oid rasmiy yozishmalar, murojaat va aloqa xatlari tashkilotlar, muassasalar va xususiy shaxslar o'rtasida muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim-tarbiya va ularni boshqarish faoliyatida yuzaga keladigan ko'p sonli strategik, kardinal, taktik, operativ yoki kundalik tezkor masalalarni hal qilish kabi turli shakl va mazmundagi vazifalarni bajaradi va yuridik kuchga ega bo'ladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalar – bu matn, ya'ni grammatik jihatdan tashkillashtirilgan va semantik jihatdan tugal nutqiy asar bo'lib, muayyan kommunikativ yo'nalishga ega. U rasmiy, tashkiliy, ma'muriy funktsional uslubga mansub bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalar (TSRY) bir tomondan huquqiy, yuridik kelishuv, bitimning qonuniyligi va rasmiyligini tasdiqlovchi tegishli shaklda rasmiylashtirilgan rasmiy hujjat bo'lsa, ikkinchi tomondan uni yuborgan muassasa, tashkilot, idora, boshqarma, bilim yurti, korxonaning yoki rasmiy shaxsning tashrif qog'ozi bo'lib, davlatning vakolatlangan tegishli idoralarida qabul qilingan me'yor va qoidalarga bo'ysunadi. Ta'limga oid xarakterdagi rasmiy-idoraviy munosabatlar sohasidagi muloqotning asosida ijtimoiy ongning huquqiy shakli yotadi.

Ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalar hozirda uslubi, umuman olganda, ingliz va o'zbek tilida ham sezilarli o'zgarishlarga yuz tutdi. Nutqimizda rasmiy bilan bir qatorda yarim rasmiy xatlar, turli shakl va mazmundagi tabriknomalar, reklama xatlari kabilar mavjudki, ularda hayajonlilik va ta'sirchanlik hamda Davlat Standarti talablarining nisbati gohida emotsional-intellektual yoki biznes yo'nalishiga qarab bir tomon, gohida esa boshqa tomonga o'zgaradi. Ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalarda rasmiy-idoraviy uslubning o'ziga xos belgilari majmuini aniqlash ahamiyatli hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday rasmiy-idoraviy muloqot ma'lum uslub doirasi, har qanday holatda parametrlarga mos ravishda miqyosida amalga oshiriladi. Rasmiy uslubdan ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida foydalaniladi va u turli xildagi matnlarda - davlat hujjatlari, qonunlari, xalqaro hujjatlar hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi rasmiy yozishmalarda qo'llaniladi.

An'anaviy funksional stilistika tilshunoslikda sistema-struktur yo'nalish paydo bo'lgan davrda shakllanadi. Aynan shuning uchun stilistika bo'yicha yaratilgan har qanday darslik, dissertatsiya, maqola va o'quv qo'llanmalarda tizimlilik qonuniga qat'iy asoslanadi: har bir funksional uslubning o'ziga xos xususiyatlari til tizimining bosqichlari nuqtai-nazaridan qaraladi.

Funksional stillar turli qatlamga tizimlashgan til vositalarining tanlash me'yori va muvofiqligi jamlanadigan nuqtayi tizimni o'rganadigan tilshunoslik ilmidir. "Tilning rasmiy-idoraviy uslubi bu ma'muriy-huquqiy ijtimoiy faoliyatda qo'llanadigan turi va u mazkur ijtimoiy sohadagi nutqiy faoliyatga xos til vositalari turkumi bilan huquqiy mamzundagi buyruq, farmoyish, qonun va hakazolar bilan xarakterlanadi. U turli xildagi yuridik (buyruq, farmoyish, qonun va b.), diplomatik (notalar, memorandum, xalqaro bitimlar va b.) hamda tashkiliy-ko'rsatma hujjatlar (aktlar, xisob varaqalari, buyruqlar, ishonchnomalar, ma'lumotnomalar, rasmiy maktublar va b.) matnlarida o'z aksini topadi".

Til uslublari adabiy tilning bir ko'rinishi sifatida qaraladi va ".....uslubning tilning eng ko'p iste'molda bo'ladigan, faol hamda zaruriy nutqiy ko'nikmalar hosil qilishda ham juda muhim bo'lib, bunday yondashuvning asosini nutq subyekti, ya'ni matn muallifining nutq jihatidan o'zini tutish xususiyatlarining tahlili tashkil etadi".

Adabiy tilni o'rganishning afzalliklari funksional stillar strukturasi tadqiq qilish bilan bog'liq. Nutq aspektlarini uslublarga tasnif berish mavzusini yoritish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

Lisoniy yondashuvda funksional stil tilning asosiy funksiyalari bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Til bilan nutq stilistik kategoriyalarga nisbatan qo'llanganda, ularning o'zaro ta'sirlashuvlarga moyilliklari ko'rsatiladi: "Stilistik xususiyatlarning hech biri faqat til tizimi yoki nutqdagina mavjud emas. Bu qo'llanish natijasida aniqlab olinadi". Nima qo'llaniladi? Til nutq doirasida ishlatiladi". Demak, funksional stilistika nuqtai-nazaridan qraganda, aniq bir muayyan matnlarda umumiy uslub qonuniyatlarini, turli stildagi matnlarning o'ziga xoslik va afzalliklarini aniqlash va tasniflash alohida ahamiyatga ega.

Ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalarning rasmiy-idraviy uslubga xosligining asosiy maqsadi - odamlar, tashkilotlar, idora, muassasalar, mamlakatlar o'rtasidagi ta'limga oid munosabatlarni boshqarish va biror-bir masalaning ta'limga oid munozaratalab holati haqida axborot yetkazish. Bunda matndagi mazmun bir ma'moga ega bo'lishi shart.

Ta'lim sohasidagi rasmiy yozishma va hujjatlar uslubi jamiyatning manfaatdor iqtisodiy, yuridik va ijtimoiy ma'muriy-huquqiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarda davlat idoralari o'zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Shunga ko'ra bu uslubda yuridik qonun moddalari, hukumat idoralari qarorlari, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi.

O'zbek tilshunos olimlari Q. Sodiqov va Q.O.Omonov lar rasmiy uslubning tabiati aniqlikni talab etishi, aniqlik - hujjatlar uslubining asosiy belgisi ekanligini e'tirof etadilar.

Rasmiy-idraviviy ayrim olimlar quyidagicha ta'rif beradi: "iqtisodiy, itimoiy ma'muriy-huquqiy, ma'naviy-madaniy va siyosiy hayotda davlatlar, tashkilotlar hamda jamiyat a'zolarining turli ko'rinish xarakter va vazifadagi rasmiy muloqotlari paytida yuzaga keladigan rasmiy munosabatlarni yuridik, xuquqiy-me'yoriy hujjatlar ko'rinishida ifoda etadigan uslubdir" .

Nutqning rasmiy-idraviviy stili - "bu asosiy vazifasiga ko'ra idoralararo, tashkilotlararo yoki ulanring ichida, ishlab chiqarish, xo'jalik, yuridik faoliyat jarayonida shaxslar o'rtasida yuzaga keluvchi turli shakl va mazmundagi ko'plab rasmiy-idraviviy munosabatlar sohasiga xizmat qiluvchi lisoniy vositalarning o'ziga xos tizimlashgan yig'indisidir" .

Bu ta'riflar asosida umumiy olganda bir xil fikr mavjud: rasmiy sohadagi muloqot negizini har qanday jamiyat, siyosiy tizimda ijtimoiy ongning huquqiy shaklini tashkil etadi. Aynan o'sha davlatda amalda bo'lgan huquq me'yorlari ushbu sohada amalga tadbiq etiladi va rasmiy-idraviviy uslubning turli hujjatlari matnlarida aks etadi. Bu o'z navbatida til andozalari qoliplarini

shakllantiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, tilshunoslikda me'yor va andoza tushunchalari ko'pincha bir-birini farqlanmaydi.

“Ma'muriy-huquqiy sohaning ijtimoiy “rollari”ga mas'ul bo'lgan faollar nutqiy xulq-atvori pattern, namuna, model va andozalari mos keladi. Andozalar yaratiladi, ayrim hayotiy an'analar ham qonun kuchiga ega qoidalar, bu qonunlarga mos ravishda tegishli yo'riqnomalar, ma'lumotnomalar, na'munalar orqali qo'llab-quvvatlab turiladi” .

Har qanday jamiyatda, ayniqsa, rivojlangan, mutlikonferensial va multikultural jamiyatlarda rasmiy matnlar tasnifini ishlab chiqishda yagona mezon qo'yish mushkul. Ta'lim sohasidagi rasmiy-idoraviy yozishmalar turli matnlarda turlicha o'z ifodasini topgan farqli va semiotik dominanta mavqeyini olgan uslubiy belgilar tadqiqotchilarga mazkur uslubning muhim, o'z kuchini hanuz saqlab qolgan kichik turlarini aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalar jamiyat hayotida muhim o'rin egallab, ijtimoiy, huquqiy va kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Ularni kompleks – funksional, pragmatik va kognitiv yondashuvlar asosida o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U.R.Yo'ldoshev, Tarjimashunoslik terminlarining o'zbekcha talqini, “O'zbek tilida xareografik terminlarning shakllanishi: bugungi holati va taraqqiyoti bosqichlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent 2021. 300-304-betlar
2. U.R.Yo'ldoshev, Tarjimaning pragmatik xususiyatlari, Buyuk ipak yo'lida muminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Samarqand 2020, 15-may, 223-226-betlar.
3. U.R.Yo'ldoshev, Tarjimaning lingvodidaktik masalalari, Tarjimaning lingvodidaktik masalalari, ISBN: 978-9910-615-80-1 – “OLAM PRINT” nashriyoti 2026.
4. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва: Наука, 1971.
5. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Safarov Sh. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008
8. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining funksional uslublari. – Toshkent, 2006.
9. Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 1983.
10. Sodiqov Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
11. Omonov Q. O'zbek tilida rasmiy uslub masalalari. – Toshkent: Fan, 1985.

12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 20–28.